

O‘ZBEKISTON ALOQA VA AXBOROTLASHTIRISH AGENTLIGI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

O‘zbekiston tarixi kafedrası

O‘ZBEKISTON TARIXI FANIDAN SEMINAR
SAVOLLARI

**(Bakalavriaturaning kunduzgi bo‘lim barcha ta'lim
yo‘nalishidagi talabalar uchun)**

TOSHKENT -2007

O'zbekiston tarixi kafedrası katta o'qituvchilari Yusupova G.V. va Shirinova F.N.lar tomonidan tayyorlangan seminar savollari va eslubiy ko'rsatmalar talabalarga O'zbekiston tarixi fanidan seminar mashg'ulotiga tayyorlanishga yordam sifatida chop etilgan. Rejadagi savollar tarix bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasi, ilmiy xulosalarga tayanib tuzilgan. Bunda O'zbekiston tarixchilarining kontsepsiyasi va yangi ilmiy tadqiqot ishlari o'z aksini topgan.

O'zbekiston tarixi fanidan seminar savollariga puxta, chuqur tayyorlanish uchun asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati berilgan. Ro'yxatga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari, Vazirlar Maxkamasining qarorlari, tarixchi olimlarning ilmiy asarlari va kafedra o'qituvchilari tomonidan tayyorlangan ilmiy uslubiy qo'llanma, ko'rsatmalar kiritilgan. Seminar savollaridagi uslubiy ko'rsatmalar talabalarning muammolarni har taraflama yoritishiga, seminar mashg'ulotiga to'g'ri tayyorlanishiga yordam beradi.

1-MAVZU: “AVESTO” KITABI –O‘ZBEKISTON TARIXINI O‘RGANISHDA MUHIM MANBA

Reja:

1. O‘rta Osiyoda ijtimoiy taraqqiyotning paydo bo‘lishi, uning bosqichlari va asosiy belgilari. O‘zbekiston hududida ibtidoiy jamiyat manzilgohlari.
2. Mintaqadagi qadimgi madaniyat, aholining diniy e‘tiqodlari.
3. Zardushtiylik dinining mazmun mohiyati. “Avesto”-muqaddas kitobning o‘lkamiz tarixini o‘rganishdagi o‘rni.

Adabiyotlar

1. I.A Karimov. “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q”. T., “O‘zbekiston”, 1998.
2. U.Jo‘rayev, Y.Saidjonov. Dunyo dinlari tarixi. T., “Sharq”, 1998.
3. A.Sa’dullayev. Qadimgi O‘zbekiston ilk yozma manbalarda. T., “O‘qituvchi”, 1996.
4. Tohir Karim. Muqaddas “Avesto” izidan. T., “Cho‘lpon”, 2000.
5. Vatan tuyg‘usi. T., O‘zbekiston, 1996.
6. O‘zbekiston tarixi. T., “Yangi avlod asri”, 2003.

Bu mavzuni yoritishda talaba ko‘proq muqaddas “Avesto” kitobining O‘rta Osiyo tarixini o‘rganishdagi ilk manba ekanligiga e‘tiborini qaratishi lozim. Muqaddas “Avesto” kitobida keltirilgan ma‘lumotlarga tayangan holda O‘rta Osiyodagi ilk e‘tiqodlar, urf-odatlar, an‘analar va aholining turmush tarzi yoritib beriladi. Shu bilan birga hozirgi davrda tarixchi olimlar va arxeologlarning izlanishlari asosida o‘rganilgan ibtidoiy jamiyat, uning bosqichlari va manzilgohlari ochib berilishi lozim. Bunda talabadan ijtimoiy taraqqiyot jarayonini to‘laroq anglab olishga harakat qilish, ibtidoiy davrlarni bir - biridan ajrata olish, uning asosiy belgilarini eslab qolish taqozo etiladi. Shuningdek, “Avesto” kitobining Vatanimiz tarixini o‘rganishdagi ahamiyati yoritilib beriladi.

2- MAVZU: DAVLATCHILIKNING PAYDO BO‘LISHI, SHAKILLANISHI VA TARAQQIYOT BOSQICHLARI

Reja:

1. Davlat tushunchasi. Uning shakllanishi va paydo bo‘lishidagi asosiy omillar.
2. O‘rta Osiyodagi ilk davlatlar, ularning boshqaruv tizimi. Katta Xorazm, qadimgi Baqtriya, Sug‘d.
3. O‘rta Osiyoga ajnabiy bosqinchilarning hujumi va uning oqibatlari. Salavkiylar va Yunon-Baqtriya davlatlari.
4. Mahalliy davlatchilikning rivojlanishi. Qadimgi Dovon va Qang‘ davlati.
5. Kushon saltanati va undagi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayot. Davlatlarning rivojlanishida Buyuk ipak yo‘lining roli.

Adabiyotlar

1. Azamat Ziyov. O‘zbek davlatchiligi tarixi. T., “Sharq”, 2000.
2. M.Pidaev. Sirli Kushon saltanati. T., “Fan”, 1990.
3. K.Shoniyozov. Qang‘ davlati va qang‘liklar. T., “Fan”, 1990.
4. F.Sulaymonova. Sharq va G‘arb. T., “O‘zbekiston”, 1997.
5. Ipak yo‘li afsonalari. T., “Fan”, 1993.

6. E.V.Rtveladze. va boshqalar. O‘zbekiston sivilizatsiyasi: davlatchilik va huquq tarixidan lavhalar. T., “Adolat”, 2001.

Bu mavzuni o‘rganishda davlat, davlatchilik tushunchasiga e’tibor qaratish lozim. O‘rta Osiyodagi ilk davlat tiplarini misollar bilan yoritib berilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. O‘rta Osiyoda paydo bo‘lgan ilk davlat uyushmalarining boshqaruv tizimi, aholining xo‘jaligi, turmush tarzi, madaniyati yoritib beriladi. Shuningdek, O‘rta Osiyoga Ahmoniylar yurishi va ularga qarshi kurashgan qahramonlar xususida ma’lumotlar beriladi. Aleksandr Makedonskiyning yurishlari va buning oqibatida vujudga kelgan Salavkiylar davlatining o‘ziga xos tomonlari ochib beriladi. Talaba mahalliy davlatchilik va yunon davlatchiligi o‘rtasidagi farqlarni anglab olishi, qadimgi Dovon va qang‘ davlatlari xususidagi ma’lumotlarni o‘rganishi lozim. Yue-chji davlat uyushmasining tashkil etilishi va oxir oqibatda katta Kushon imperiyasiga aylanish jarayoniga diqqat – e’tibor qaratish zarur. Bu davlatlarning taraqqiyotida buyuk ipak yo‘lining ahamiyati ko‘rsatib beriladi.

3 - MAVZU: O'RTA OSIYO EFTALIYLAR, TURK XOQONLIGI, ARABLAR ISTILOSI VA HUKUMRONLIGI DAVRIDA

Reja:

1. Eftaliylar davlati, undagi boshqaruv tizimi. Ijtimoiy –iqtisodiy va madaniy hayot. O'rta Osiyoda yerga egalik munosabatlarining shakllana boshlashi.
2. Turk xoqonligi, davlat boshqaruv tizimi. Xoqonlikdagi ijtimoiy –iqtisodiy ahvol va madaniy hayot.
3. O'rta Osiyo arablar hukmronligi davrida. davlat boshqaruv tizimi. Ijtimoiy –siyosiy ahvol. Islom dinining yoyilishi va uning ahamiyati.

Adabiyotlar

1. I.A.Karimov. Olloh qalbimizda, yuragimizda. T., "O'zbekiston", 1999.
2. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar 1-jild. T., "Fan", 1968.
3. Nasimxon Rahmon. Turk xoqonligi. T., 1993.
4. A.Sagdullayev va boshqalar. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat qurish taraqqiyoti. T., 2000.
5. T.Qilichev. Ko'hna qal'alar diyori. T., Fan, 1993.

6. O'zbekiston tarixi 1-qism. II nashri. T., Universitet, 1999.

Mavzu katta bo'lib, V-VIII asrlargacha bo'lgan davrlarni o'z ichiga oladi. Bunda Eftalon Vaxshunvor boshchiligidagi etnik guruhning sobiq Kushon davlatidagi hududlarga joylashib olishi va mahalliy aholi tarkibiga singib ketish jarayoni ochib beriladi. Davlat boshqaruv tizimi, yerga egalik munosabatlari, xo'jalik, madaniyat, urf-odat, an'analar yoritiladi.

V asrda Oltoy o'lkasidagi siyosiy vaziyatga e'tibor qaratilib, Turk xoqonligining tashkil topishi, xoqonlikdagi siyosiy ahvol yoritiladi.

VIII asrda arablarning O'rta Osiyoga yurishi va Xurosonni egallashi, Amudaryoning narigi qirg'og'ini Movarounnahr deb ataganliklari xususida ma'lumot beriladi. Qutayba ibn Muslimning 704-yildan Movarounnahr hududlariga qilgan yurishlari, uning oqibatlari yoritiladi. Xalifalik davridagi davlat boshqaruv tizimi, soliqlar, aholining ijtimoiy, iqtisodiy ahvoli va islom dinining yoyilishi ochib beriladi.

4 - MAVZU: IX-XII ASRLARDA DAVLATCHILIK TARAQQIYOTI. SIYOSIY, IJTIMOIY VA IQTISODIY HAYOT

Reja:

1. Movarounnahrda Somoniylar davlatining vujudga kelishi va uning boshqaruv tizimi. O'lkadagi ijtimoiy –iqtisodiy va madaniy hayot.
2. Qoraxoniylar davlatining tashkil topishi va uning boshqaruv tizimi. Undagi siyosiy, ijtimoiy – iqtisodiy ahvol, madaniyat taraqqiyoti.
3. Xorazmshohlar davlati. Undagi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayot.

Adabiyotlar

1. I.A. Karimov. Istiqlol va ma'naviyat. T., O'zbekiston, 1994.
2. Z.Bunyodov. Anushtegin –Xorazmshohlar davlati. T., G'ofur G'ulom, 1998.
3. Vamberi Xerman. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. T., "Fan", 1990.
4. O.Masharipov. Xorazm tarixidan lavhalar. T., 1996.
5. Nizomulmulk Siyosatnoma. T., "Adolat", 1997.
6. O'zbekiston tarixi (qisqacha ma'lumotnoma). T., "Sharq", 2000.

Talaba bu mavzuni yoritishda VIII asr oxiri IX asr boshlarida Xuroson va Movarounnahrda siyosiy ahvolga e'tiborini qaratishi kerak. Somoniylar davlatining tashkil topishidagi ichki omillar ahamiyatga molik hisoblanadi. Ayniqsa, Samoniylar davrida markaziy boshqaruv tizimining joriy qilingani, o'lkadagi iqtisod va madaniyatga kengroq to'xtalish zarur. Mavzuni o'rganishda qoraxoniylar davlati davridagi boshqaruv tizimi bilan Samoniylar davridagi boshqaruv tizimini taqqoslab, ular o'rtasidagi farqni anglab olish lozim. Qoraxoniylar davlatining o'zbek xalqi tarixidagi o'rnini ko'rsata bilish yaxshi natijalarni beradi. Talabaning g'aznaviylar va Saljuqiylar davlati xususida ham ma'lumotga ega bo'lishi, mavzuni teranroq tushunishga yordam beradi. Xorazmshohlar davlatining tashkil topishida Otsizning roli ko'rsatib beriladi. Takash davridagi siyosiy ahvol va Xorazm hududlarining kengayib borishi xususida ko'proq ma'lumotga ega bo'lishga harakat qilish lozim. Shuningdek, shunday katta hududga ega bo'lgan Xorazm davlatining ichki nizolarga boyligi, noto'g'ri elchilik munosabatlari va Muhammad Xorazmshohning noto'g'ri siyosati yoritib berilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

5 - MAVZU: O'RTA OSIYO XALQLARINING IX-XII ASRLAR DAVRI MADANIYATI. ILM –FAN RAVNAQI

Reja:

1. IX-XII asrlarda Markaziy Osiyo xalqlarining moddiy va ma'naviy madaniyatining yuksalishiga ta'sir ko'rsatgan tarixiy shart-sharoitlar.
2. Aniq fanlar ravnaqi. O'rta Osiyolik allomalar va ularning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi.
3. Ijtimoiy fanlarning rivojlanishi va ularning namoyondalari. Badiiy adabiyotning rivoj topishi. M.Qoshqariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy va boshqalar.
4. O'rta Osiyoda islom ta'minotining yuksalishi. Buyuk islomshunos olimlar: Imom al-Buxoriy, At-Termiziy, Imom al-Moturidiy va boshqalar.

Adabiyotlar

1. I.A.Karimov. Istiqlol va ma'naviyat. T., "O'zbekiston", 1994.
2. Buyuk siymolar, allomalar (1-2 kitoblar). T., "Fan", 1995, 1996.
3. O'lmas obidalar. T., "Fan", 1989.

4. O'rta Osiyo xalqlari hurfikrligi tarixidan. T., "Fan", 1990.
5. U.Uvatov. Donolardan saboqlar. T., Abdulla Qodiriy, 1994.

Bu mavzuni yoritishda talabadan avvalo VIII asr oxiri IX asr boshlarida madaniyat va ilm - fan taraqqiyotiga turtki bo'lgan omillarni ochib berish, tarixiy shart-sharoitga xolis baho berish talab etiladi. Aniq fanlarning rivojiga sabab bo'lgan ehtiyoj, undan kelib chiqadigan natijalarga e'tibor qaratish zarur. Shu davrlarda ijod qilgan allomalarning faoliyati, yozgan asarlari haqida ma'lumotga ega bo'lish lozim. Ijtimoiy fanlar namoyondalari, badiiy adabiyot va qasidanavislikning rivojlanishiga e'tibor qaratish kerak. Ularning asarlaridan namunalar keltirilsa, mavzuni teran anglaganligi ma'lum bo'ladi. Shuningdek, dunyoviy fanlar diniy fanlar bilan birgalikda rivojlanganligini alohida ta'kidlash taqozo qilinadi. O'rta Osiyolik buyuk ulamolar, olimlar haqida ma'lumot berish, tasavvuf ilmi, so'fiylik tariqati xususida oz bo'lsada bilimga ega bo'lishga harakat qilish lozim.

6 - MAVZU: CHIG‘ATOY ULUSI. SIYOSIY VA IJTIMOIIY, IQTISODIY AHVOL

Reja:

1. Markazlashgan mo‘g‘ullar davlatining tashkil topishi
2. X11 asr oxiri –X111 asr boshlarida Xorazmshohlar davlatidagi siyosiy ahvol.
3. Mo‘g‘ullarning O‘rta Osiyoga istilosi va ularga qarshi kurash.
4. Chig‘atoy ulusining tashkil etilishi va undagi boshqaruv tizimi. Ulusdagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy ahvol. Mahmud Torobiy qo‘zg‘aloni va uning ahamiyati.

Adabiyotlar

1. Z.Bunyodov. Anushtagin –Xorazmshohlar davlati. T., G‘ofur G‘ulom, 1998.
2. X.Vamberi. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. T., 1990.
3. H.Zayniddin. Jaloliddin Manguberdi. T., “Fan”, 1993.
4. O.Masharipov. Xorazm tarixidan lavhalar. T., 1996.
5. Jaloliddin Manguberdi. T., “Sharq”, 1999.
6. A.Sagdullayev va boshqalar. O‘zbekiston tarixi: davlat va jamiyat qurish taraqqiyoti. T., 2000.

Bu mavzuni yoritishda Mo'g'uliston cho'llaridagi siyosiy vaziyatga baho berish taqozo etiladi. "Yaso" qonuni xususida ma'lumot berib o'tish lozim. Chingizxonning armiyasi va harbiy yurishlari ochib beriladi. Shu bilan birga Xorazmdagi siyosiy ahvolga sharh berib o'tish kerak. Mo'g'ullarning O'rta Osiyoga yurishlari va unga qarshi kurashgan xalq va uning qahramonlari xususida batafsilroq to'xtalish zarur. Chingizxonning tirikligidayoq bosib olgan joylarini o'g'illariga bo'lib berishi va Movarounnahr hududlarining Chig'atoyga tegishi haqida ma'lumot beriladi. Chig'atoyning o'ziga tegishli yerlarni boshqarish uchun xorazmlik savdogar Mahmud Yalovochni yollagani bayon etilib, uning olib borgan siyosati, davlat boshqaruvi tizimi yoritib beriladi. Chig'atoy ulusidagi og'ir iqtisodiy ahvolning Mahmud Torobiy boshchiligidagi qo'zg'olonga sabab bo'lishi ko'rsatib beriladi. Qo'zg'olon natijalari, oqibatlari yoritib berilsa mavzuni to'liqroq o'rganishga yordam beradi. Chig'atoy ulusidagi hokimiyat tepasiga Ma'sudbek, Kenakxonlarning kelishi, ularning olib borgan islohotlari yoritiladi.

7-MAVZU: AMIR TEMUR DAVRIDA O‘ZBEK DAVLATCHILIGINING YUKSALISHI. TEMUR TUZUKLARI

Reja:

1. XIV asr boshlarida Movarounnahrdagi siyosiy ahvol. Temurbekning siyosiy maydonga chiqishi.
2. Amir Temurning markazlashgan davlat tuzishi va davlat boshqaruv tizimi. Temur tuzuklari va hozirgi zamon.
3. Amir Temurning harbiy yurishlari. Davlatdagi tashqi siyosat, xorijiy mamlakatlar bilan munosabatlar.
4. Amir Temur siyosatining tarixiy ahamiyati.

Adabiyotlar

1. I.A.Karimov. Amir Temur davridagi bunyodkorlik va hamkorlik ruhi bizga namuna bo‘laversin. Asarlar, 4-jild. T., “O‘zbekiston”, 1996.
2. B.Ahmedov. Amir Temur (tarixiy roman). T., “Meros”, 1995.
3. B.Ahmedov. Amir Temurni yod etib. T., “O‘zbekiston”, 1996.
4. A.Muhammadjonov. Temur va temuriylar davri. T., “Fan”, 1996.
5. I.Mo‘minov. Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli. T., “Fan”, 1993.
6. Amir Temur jahon tarixida. T., “Sharq”, 1996.

Bu mavzuni o'rganishda Temurbek ibn Muhammad Tarag'ayning siyosiy maydonga chiqishiga e'tibor qaratish lozim. Temurbekning 1370 - yili Balxda amir unvoni bilan hokimiyatni qo'lga kiritishi va markazlashgan davlat barpo etilishi yoritib beriladi. Bunda davlatning boshqaruv tizimiga, ichki va tashqi siyosatiga ko'proq urg'u beriladi. Amir Temurning qudratli qo'shin tuza olganligi, harbiy yurishlari, unda qo'llanilgan usullar xususida so'z yuritiladi. Shu bilan birga elchilik munosabatlari, xususan, Yevropa mamlakatlari bilan o'zaro aloqalarini yoritib berish lozim. Amir Temur shaxsiga xolisona baho berib, uning jahon va O'rta Osiyo tarixidagi o'rniga batafsil to'xtalish zarur. "Temur tuzuklari" haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'lishga harakat qilish lozim. "Temur tuzuklari"ni teran o'rganish jarayonida uning hozirgi vaqtda ham o'z ahamitini yo'qotmaganligiga ishonch hosil qilish mumkin. Amir Temur siyosatining tarixiy ahamitini berish bilan mavzuni yakunlasa bo'ladi.

8 - MAVZU: AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI MADANIYATI

Reja:

1. XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asrda Movarounnahr va Xurosonda moddiy madaniyat ravnaqi.
2. Temuriylar davrida ilm-fan taraqqiyoti.
Ulugʻbekning ilmiy maktabi.
3. Xattotlik, tasviriy san'at va musiqa madaniyati.
4. Badiiy adabiyotning yuksalishi. Alisher Navoiyning ijodiy merosi.

Adabiyotlar

1. I.A.Karimov. Vatan sajdagoq kabi muqaddasdir. Asarlar 1-jild. T., "Oʻzbekiston", 1996.
2. Z.Vosifiy. Badoe'ul - vaqos. T., Gʻofur Gʻulom, 1979.
3. Temur va Ulugʻbek davri tarixi. T., "Sharq", 1996.
4. Sharofiddin Yazdiy. Zafarnoma. T., "Sharq", 1997.
5. A.Qayumov. Alisher Navoiy. T., 1994.

Bu mavzu oʻtgan mavzuning davomi boʻlib, bunda diqqat - e'tibor moddiy va ma'naviy madaniyatga, ilm-fan ravnaqiga qaratiladi. XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asrda Movarounnahr va Xurosonda barpo etilgan

me'morchilik majmuasi, amaliy san'at buyumlari, ularni barpo etishdagi omillar ochib beriladi. Amir Temurning har bir yurishidan ko'plab olimlar, ulamolar va ustalarni ko'chirib keltirib, o'lkaning obodonchilik va qurilish ishlariga bosh bo'lganligi, olim va ulamolarning tadqiqotlariga homiylik qilganligi yoritib beriladi. Temur va temuriylar davrida ilm-fan taraqqiyoti xususida ma'lumot beriladi. Bu davrda ijod qilgan olimlarning faoliyati o'rganib chiqiladi. Xususan Ulug'bekning ilmiy maktabi va qurdirgan rasadxonasi, o'zining ilm-fanga qo'shgan hissasini ochib berish zarur. Talabadan shu davrlardagi xattotlik, tasviriy san'at, musiqa xususida, badiiy adabiyotning taraqqiyoti borasida ma'lum tasavvurga ega bo'lish taqozo etiladi. Alisher Navoiyning ijodi xususida to'xtalib, uning adabiy merosi bo'lgan asarlari xususida ma'lumot berish lozim.

9 - MAVZU: O'ZBEK XONLIKLARINING IJTIMOIY, SIYOSIY VA MADANIY HAYOTI

Reja:

1. XV asr boshidagi siyosiy vaziyat. Shayboniylar davlatining shakllanishi hamda undagi ijtimoiy - iqtisodiy va madaniy hayot.

2. Ashtarxoniylar hukmronligi davrida Buxoro xonligi. Buxoro amirligining vujudga kelishi, boshqaruv tizimi, xo‘jalik va madaniyat.
3. Xiva xonligi, ijtimoiy - siyosiy vaziyat, madaniy hayotdagi o‘zgarishlar.
4. Qo‘qon xonligi, undagi ijtimoiy-siyosiy va xo‘jalik hayot. Qo‘qon adabiy va madaniy muhiti.

Adabiyotlar

1. I.A.Karimov. Istiqlol va ma'naviyat. T., “O‘zbekiston”, 1994.
2. M.Bayoniy. Shajarai Xorazmshohiy. T., G‘ofur G‘ulom, 1994.
3. X.Bobobekov. Qo‘qon tarixi. T., “Fan”, 1996.
4. Mirza Abdulazim Somiy. Mang‘it hukmdorlari tarixi. M- 1962.
5. I.Hoshimov. Hindistonda Boburiylar sulolasi saltanati. T., O‘qituvchi, 1996.
6. K.Sh.Shoniyozov. O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni. T., “Sharq”, 2001.

Bu mavzuni yoritishda shunday katta imperiyaning bo‘linib ketganligiga e’tibor qaratish lozim. XV asr boshlarida o‘lkadagi siyosiy ahvolni o‘rganish yaxshi natija beradi. Shayboniylar davlatidagi ichki siyosat, olib borilgan islohotlar, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot yoritiladi. Ashtarxoniylar sulolasining olib

borgan iqtisodiy siyosati ochib berilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Buxoro xonligining Buxoro amirligiga aylanib ketishi jarayoniga e'tibor qaratib, Buxoro amirligidagi ijtimoiy-iqtisodiy hayot yoritib beriladi.

Xiva xonligining tashkil topishi, xonlikdagi siyosiy jarayonlar, qoloq iqtisodiyot xususida ma'lumot beriladi. 1800 - yildan boshlab Xiva xonligi rivojlana boshlagani, unda iqtisodiy va madaniy yuksalish boshlanganligi ochib beriladi.

Buxoro xonligidagi murakkab siyosiy vaziyat oqibatida ajralib chiqqan Farg'ona vodiysi haqida to'xtalib o'tiladi. Shu vodiya Qo'qon xonligining vujudga kelishi, XV asrda kengayib borganligi, hududiy jihatdan yirik xonliklardan biriga aylanganligi yoritib beriladi.

10 - MAVZU: O'ZBEK XALQINING ETNIK SHAKLLANISHI

Reja:

1. Millat tushunchasi va uning asosiy belgilari.
2. Turkiy xalqlarning shakllanishi va tarqalishi.
3. O'zbeklarning kelib chiqishi va rivojlanish jarayoni.
4. O'zbek xalqining shakllanishida mahalliy davlatchilikning va millatimiz ma'naviy qiyofasining o'rni.

Adabiyotlar

1. I.A.Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. T., Sharq, 1998.
2. Abulg‘oziy. Shajarai turk. T., Cho‘lpon, 1992.
3. B.Ahmedov. O‘zbek ulusi. T., Nur, 1992.
4. Zoki Validiy. O‘zbek urug‘lari. T., 1992.
5. Ziyo Ko‘kali. Turkchilik asoslari. T., 1994.
6. Hasan Ato Abushiy. Turkiy qavmlar tarixi. T., Cho‘lpon, 1994.
7. K.Sh.Shoniyozov. O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni. T., “Sharq”, 2001.

Bu mavzuni yoritishda millat tushunchasi va uning asosiy belgilariga alohida e'tibor qaratish kerak. Urug‘, qabila, el-elat va millat tushunchasining ma'nosi ochib beriladi. Turkiy xalqlarning kelib chiqishi, uzoq tarixiy jarayonda turli urug‘ va qabilalar bilan aralashib ketishi xususida ma'lumotga ega bo‘lish lozim. Bu o‘rinda “O‘zbek” atamasining kelib chiqishiga, tarqalishiga urg‘u beriladi. O‘zbeklarning ilk ajdodlari, ularning millat bo‘lib shakllanguncha bosib o‘tgan jarayon ochib beriladi. Xalqning shakllanishida katta o‘rin tutadigan tilning paydo bo‘lishi, uning takomillashib borishi katta ahamiyatga egaligini tushunish taqozo etiladi. Umumiy xo‘jalik, mushtarak madaniyat va ruhiyatning millat bo‘lib shakllanishdagi o‘rni ko‘rsatib

beriladi. Bu o'rinda millatimiz ma'naviy qiyofasi, o'ziga xos xususiyatlariga boshqa bir urug', qabila va xalqning ta'siri ko'rsatib o'tilishi lozim. Millat bo'lib shakllanishda xalqning o'zligini anglashi kabi muammolar yoritib beriladi. Bu jarayonda u yoki bu davlatlarning o'rni katta ahamiyatga ega ekanligi ochib beriladi.

11 - MAVZU: ChOR ROSSIYASINING TURKISTONDA YURITGAN MUSTAMLAKACHILIK SIYOSATI

Reja:

1. XIX asr ikkinchi yarmida O'rta Osiyo va Rossiyadagi siyosiy ahvol. Rossiyaning O'rta Osiyoni bosib olishi.
2. Mamlakatda mustamlakachilik boshqaruvi tizimining vujudga keltirilishi. Chor Rossiyasi hukmron doiralarining Turkistonda yuritgan iqtisodiy siyosati.
3. Turkiston xalqlarining mustamlakachilik zulmiga qarshi ozodlik kurashlari. 1916 - yil qo'zg'oloni.
4. Turkistonda ma'naviy hayot.

Adabiyotlar

1. I.A.Karimov. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. Asarlar 1- jild. T., O'zbekiston, 1996.

2. A.Avloniy. O'son millat. T., "Sharq", 1993.
3. X.Ziyayev. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurashi. T., "Sharq", 1998.
4. X.Sodiqov va boshqalar. O'zbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitob. Turkiston chor Rocciyasi mustamlakachiligi davrida. T., "Sharq", 2000.
5. M.Hasaniy. Turkiston bosqini. T., Nur, 1992.

Bu mavzuni yoritishda asosan XIX asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyo va Rossiyadagi siyosiy, iqtisodiy ahvoli o'rganib chiqiladi. Rossiyaning O'rta Osiyoni bosib olishining sabablari ochib beriladi. Harbiy harakatlarga to'xtalib o'tish lozim. Mustamlakachilik siyosatining mazmun-mohiyati ochib beriladi. Bunda o'lkadagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotdagi o'zgarishlarga e'tibor qaratilib, Turkiston o'lkasini boshqarish haqidagi Nizomning mustamlakachilikning qonunlashtirilgani yoritib beriladi. Turkiston general-gubernatorligi bilan bir qatorda Turkiston harbiy okrugining tashkil etilganligiga e'tibor qaratish lozim. Turkiston xalqlarining erksevar xalq ekanligi, shafqatsizlik bilan olib borilgan siyosatga qaramay, milliy ozodlik kurashlariga bel bog'laganligi yoritib beriladi. Turkiston general - gubernatorligining tashkil etilishi va o'lkani boshqarish haqidagi Nizomning o'lka iqtisodiyotiga, ma'naviy hayotiga ta'siri xususida ma'lumot beriladi.

12 - MAVZU: TURKISTONDA JADIDCHILIK HARAKATI

Reja:

1. XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida Turkistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat.
2. Jadidchilik harakatining yuzaga kelishi, uning mazmun va mohiyati.
3. Turkistondagi taraqqiyparvarlar, ularning olib borgan madaniy –oqartuvchilik ishlari.
4. Jadidlarning Turkistondagi siyosiy va milliy istiqlolchilik harakatlarga o‘tkazgan ta'siri.

Adabiyotlar

1. I.A.Karimov. Istiqlol va ma'naviyat. T., O‘zbekiston, 1994.
2. A.Aliyev. Mahmudxo‘ja Beqbudiy. T., Yozuvchi, 1994.
3. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. T., Universitet, 1999.
4. O‘zbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitob. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. T., Sharq, 2000.
5. B.Qosimov. Ismoilbek Gaspirali. T., 1992.

Bu mavzuni yoritishda XIX asrning oxiri XX asr boshlaridagi ma'naviy, iqtisodiy hayot o'rganiladi. Bu ahvoldan qutulishning asosiy yo'li maorifni isloh qilish, kishilarning yangilikka intilishini kuchaytirish deb bilishlari haqida to'xtalib o'tiladi.

Ismoilbek Gaspiralining g'oyasi, uning Turkiston o'lkasiga tarqalish jarayoni ochib beriladi. Turkiston jadidlarining maorif borasidagi faoliyati, madaniy taraqqiyotga qo'shgan hissasini chuqurroq o'rganish zarur. Bunda Turkistonning yirik shaharlarida tashkil etilgan yangi usuldagi maktablarga, undagi o'quv dasturiga e'tibor qaratish lozim. Turkiston jadidlarining maorif va madaniyatni rivojlantirishdagi kishilarning ko'zini ochishdagi faoliyati o'rganiladi. Shu bilan birga Turkiston jadidlarining XX asr boshlaridagi siyosiy vaziyatni yaxshi tushunib, o'lka siyosiy hayotida faol ishtirok etganliklari haqida batafsil ma'lumot berish zarur. Ularning Turkiston siyosiy va milliy istiqlolchilik harakatiga o'tkazgan ta'siri, undagi o'rni xususida to'xtalib o'tiladi.

13 - MAVZU: SOVETLAR OLIB BORGAN SIYOSATGA QARSHILIK KO'RSATISH HARAKATI

Reja:

1. 1917 - yil fevral va oktyabr oylari oralig'ida Turkistonda siyosiy faollikning oshishi. Siyosiy tashkilotlarning vujudga kelishi.
2. Turkistonda sovet hokimiyatining o'rnatilishi va totalitar tuzumning qaror topishi.
3. Turkiston Muxtoriyatining tuzilishi, faoliyati va taqdiri. Turkistonda sovetlar siyosatiga qarshilik ko'rsatish harakati va uning mazmun mohiyati.
4. Xiva xonligi va Buxoro amirligining ag'darilishi, u yerdagi milliy ozodlik harakatlar.

Adabiyotlar

1. I.A.Karimov. O'zbekiston xalqi o'z yo'lidan qaytmaydi. Asarlar, 4-jild. T., O'zbekiston, 1996, 302-320 betlar.
2. S.Agzamxo'jayev. Turkiston muxtoriyati. T., "Fan", 1996.
3. Ibrohim Karim. Madaminbek. T., Yozuvchi, 1993.
4. Tohir Qahhor. Hur Turkiston uchun. T., Cho'lpon, 1994.
5. Amir Sayid Olimxon. Buxoro xalqining hasrati tarixi. T., "Fan", 1991.

Bu mavzuni yoritishda Rossiyadagi 1917 - yil fevral burjua demokratik inqilob va uning Turkistonga ta'siri ochib beriladi. Natijada Turkistonda siyosiy faollikning oshishi, “Sho‘roi Islomiya” va “Sho‘roi Ulamo” kabi siyosiy tashkilotlarining vujudga kelishi haqida ma'lumot beriladi. Turkistonda sovet hokimiyatining o‘rnatilishi, o‘lka III syezdining qarorlari, sovet hokimiyatining olib borgan iqtisodiy siyosati xususida batafsil to‘xtalib o‘tish zarur. Shundagina “Turkiston muxtoriyati”ning tuzilish sabablari, uning faoliyati va taqdirini tushunib yetish mumkin. “Turkiston Muxtoriyati”ning qonga botirilishi sovet hokimiyatining olib borgan noto‘g‘ri siyosati oqibatida vujudga kelgan sovetlarning siyosatiga qarshilik ko‘rsatish harakati yoritib beriladi. Yoritish jarayonida harakat yo‘lboshchilari, harakatlantiruvchi kuchlar, yengilish sabablari ko‘rsatib berilishi lozim. Xiva xonligi va Buxoro amirligining sovetlar tomonidan ag‘darilish jarayoni ochib beriladi.

14 - MAVZU: SOVETLAR DAVRIDA IQTISODIY VA MA'NAVIY QARAMLIKNING OQIBATLARI. SIYOSIY QATAG'ONLIKLAR

Reja:

1. O'rta Osiyoda milliy - hududiy chegaralanishning o'tkazilishi. O'zbekiston SSRning tashkil topishi.
2. O'zbekistondagi iqtisodiy ahvol: o'lkani sanoatlashtirish, yer-suv islohoti va qishloq xo'jaligini jamoalashtirish siyosati.
3. O'zbekiston madaniy hayotidagi qaramlik, uning oqibatlari. Madaniy hayotdagi islohotlar.
4. Sovet hokimiyatining o'lkamizda yuritgan qatag'onlik siyosati va uning oqibatlari. Qonun va inson huquqlarining paymol etilishi.

Adabiyotlar

1. I.A.Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., O'zbekiston, 1997, 110-134 - betlar.
2. M.Mahmudov. Barhayot siymolar. T., O'zbekiston, 1991.
3. I.Y.Tursunov. O'zbekiston maorifchilarining istiqlol yo'lidagi ishlari tarixidan (1917-1939- yy). T., 1995.

4. M.Hasanov. Fayzulla Xo‘jayev. T., O‘zbekiston, 1990.
5. O.Sharafiddinov. Cho‘lpon. T., Cho‘lpon, 1991.

Bu mavzuni yoritishda, avvalo, 1920 - yillardagi iqtisodiy ahvolga e'tibor qaratish lozim. Shu bilan birga O'rta Osiyoni bo'lib yuborish taklifi va uni amalga oshirish jarayoni ochib beriladi. O'zbekiston SSRning tashkil etilishi va Fayzulla Xo'jayev tomonidan buning Buxoroda e'lon qilinishi masalasi yoritiladi. O'zbekistonni sanoatlashtirish, sanoatni qishloq xo'jaligiga bog'lab qo'yish, asosan oziq-ovqat va yengil sanoatni rivojlantirishga qaratilgan siyosat olib borilganligi haqida ma'lumot to'planadi. Qishloq xo'jaligini jamoalashtirish jarayonida yer-suv, yirik shoxli qoramollar va yerni ishlaydigan asbob-uskunalar jamoa xo'jaligiga birlashtirilganligi va uning oqibatini yoritib berish kerak. O'lkada totalitar rejimning qaror topishi, bir necha bosqichda olib borilgan siyosiy qatag'onliklar xususida ma'lumot berish lozim.

15 - MAVZU: URUSHDAN KEYINGI YILLARDA O‘ZBEKISTONDAGI SIYOSIY, IJTIMOIIY, IQTISODIY AHVOL

Reja:

1. Urushdan keyingi 50-yillarda totalitar rejimning kuchayishi. Siyosiy qatog‘onliklarning yangi to‘lqini.
2. 1946-1960 - yillarda O‘zbekiston xalq xo‘jaligi: sanoatdagi rivojlanish va agrar siyosat.
3. O‘zbekistonning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotida qarama-qarshiliklarning paydo bo‘lishi, kuchayib borishi.
4. O‘zbekistonning 1985-1991 - yillardagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli. Milliy tuyg‘u, o‘z-o‘zini anglash, an‘analarni tiklash harakatlari.

Adabiyotlar

1. I.A.Karimov. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li. Asarlar, 1-jild, T., O‘zbekiston, 1996, 36-86-betlar.
2. I.A.Karimov. O‘zbekiston – bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li. T., O‘zbekiston, 1993.
3. To‘xliyev N. O‘zbekiston iqtisodiyoti (savollar va javoblar). T., O‘zbekiston, 1991.

4. Q. Usmonov, M.Sodiqov va b. O‘zbekiston qaramlik va mustaqillik yillarida. T., O‘qituvchi, 1996.
5. Yo.Xo‘jamberdiyev. O‘zbeklar ishi. T., Yozuvchi, 1990.
6. O‘zbekiston tarixi (1917-1993). T., O‘zbekiston, 1994.

Bu mavzuni yoritishda urushdan keyingi O‘zbekistondagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni tahlil qilish zarur. Bunda totalitar rejim kuchayishiga, siyosiy qatag‘onliklarga e’tibor qaratish lozim. Sanoatdagi taraqqiyot darajasi, yer osti boyliklarini qazib, markazga tashib ketilishi yoritib beriladi. Qishloq xo‘jaligida yangi yerlarni o‘zlashtirishga qaratilgan siyosat olib borilganligi ochib beriladi. Bu agrar siyosat paxta yakkahokimligini kuchaytirganligi, orol suvining kamayishiga olib kelganligini chuqur o‘rganish taqozo etiladi. Shuningdek, bu yillarda ma’muriy buyruqbozlik tizimi natijasida vujudga kelgan turli qarama –qarshiliklar, ziddiyatlarga e’tibor berish zarur. Keyingi yillarda vujudga kelgan milliy ma’naviyatni, madaniyatni, tilni va urf-odatlarini tiklash uchun olib borilgan harakatlar yoritilishi zarur.

16 - MAVZU: O‘ZBEKISTON –MUSTAQIL DAVLAT

Reja:

1. CCCPning inqirozga uchrashi va yemirilishi.
O‘zbekistonning davlat mustaqilligi sari intilishi.
O‘zbekistonda davlat mustaqilligining qo‘lga kiritilishi va uning tarixiy ahamiyati.
2. O‘zbekistonda demokratik davlatning barpo etilishi.
Fuqarolik jamiyati asoslarining yuzaga kelishi.
3. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonning iqtisodiy taraqqiyoti.
4. O‘zbekistonda ma'naviy, madaniy hayot.
O‘zbekiston va jahon hamjamiyati.

Adabiyotlar

1. I.A.Karimov. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li. T., O‘zbekiston, 1992.
2. I.A.Karimov. Istiqlol yo‘li: muammolar va rejalar.
Asarlar, 1-jild, 3-36 - betlar.
3. I.A.Karimov. O‘zbekiston –bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li. T., O‘zbekiston, 1993.
4. I.A.Karimov. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon turmush-pirovard maqsadimiz. T., O‘zbekiston, 2000.
5. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T., O‘zbekiston, 2002.
6. O‘zbekiston Respublikasi: mustaqil davlatning bunyod bo‘lishi. T., O‘zbekiston, 1992.
7. Barkamol avlod –O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., “Sharq”, 1995.

Bu mavzu talabalarimizga yaxshi tanish. Hozirgi talabalar mustaqillik yillarining mevasidir. Shu bois O'zbekistonning yangi tarixini chuqur, har taraflama o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda O'zbekistonning mustaqillikni qo'lga kiritish yo'lidagi harakatlari, siyosiy jarayonlar yaxshi o'rganilishi zarur. Mustaqillikni qo'lga kiritish, uning tarixiy ahamiyati ochib beriladi. O'zbekistonning huquqiy asoslari, demokratik davlat, fuqarolik jamiyati xususida fikr yuritiladi. Shu yillar ichida O'zbekistonning iqtisodiy, ma'naviy va madaniy sohalarda erishgan yutuqlari o'rganiladi. O'zbekistonning MDH davlatlari va jahon jamoatchiligi bilan iqtisodiy va madaniy aloqalarini yoritib berish zarur.

**O‘zbekiston tarixi fanidan seminar savollari.
(Bakalavriaturaning kunduzgi bo‘lim barcha ta'lim
yo‘nalishidagi talabalar uchun)**

**O‘zbekiston tarixi kafedrasida
muhokama etilgan va
tasdiqlangan
(12.11.2007 y., 13-bayonnoma).**

**I va BF dekanati uslubiy
majlisida muhokama etilgan va
tasdiqlangan
(6.02.2008 y., 6-bayonnoma).**

**Mualliflar: G.V.Yusupova,
F.N.Shirnova**

**Taqrizchilar: B.A.Arifxanov,
D.S.Ziyaeva**

Muharrir: G.Karimova